

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR JAMOASINI SHAKLLANTIRISH VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17851758>

Shaniyazova Dilafruz Sabirovna

*Qashqadaryo VPMM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrası v/b
dotsenti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limning muhim dolzarb masalasi bo'lgan – boshlang'ich sinf o'quvchilarida jamoa bo'lib ishlash ruhiyatini shakllantirish, ularni bir-birlariga nisbatan muhim vaziyatlarda qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, yordam berish, adolat bilan yondoshish va hurmat qilish kabi yuksak fazilatlarni tarkib toptirish orqali ta'lim samaradorligiga erishish yo'llari yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar

Jamoa, guruh, jamoaning rivojlanish bosqichlari, o'quvchilar jamoasi, jamoaning roli, jamoaning o'ziga xos xususiyatlari.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamon talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash uzluksiz ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda o'quvchi-yoshlar bilan tashkil etiladigan har bir o'quv mashg'ulotining yakuniy natijaga qaratilishi, ularga puxta bilimlarni singdirish barobarida Vatanimizning azizligi, o'lkamiz florasi va faunasining naqadar rang-barangligi bilan bir qatorda yurtimizdagi insonlarning bir-biriga hurmat va ehtirom ko'rsatishi, muomala madaniyati, yurish-turishda o'zini tutishi, ustozlar, yoshi kattalar bilan muomala jarayonida tavoze ko'rsata olishi kabi ezgu xislat va fazilatlarni mujassamlashtirish talab etiladi. Demak, yoshlarga puxta kasbiy bilimlar berish bilan birga ularni yuksak madaniyatli va mas'uliyatli insonlar qilib tarbiyalash ezgu maqsadimiz hisoblanadi.

Buning uchun boshlang'ich sinflarda o'quvchilar jamoasini shakllantirish orqali ularning bir-birlariga mehr-muhabbatlari, hurmat-izzatlari, qo'llab-quvvatlashlari, yordam qo'llarini cho'zish kabi insoniy fazilatlarini tarkib toptirish mumkin. Jamoa birlashgan sinflarda tashkil etiladigan o'quv mashg'ulotlarining samaradorligi ham ortadi. Ana shunday sinf jamoasini shakllantirish sinf rahbarlarining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Eng avvalo, jamoa so'ziga to'xtalsak:

Jamoa – bu umumiy maqsad, vazifalar, ishga nisbatan yagona yondashuv va alohida mas’uliyat doirasi bilan birlashgan, bir-birlarini to’ldirib turuvchi ko’nikmalarga ega insonlar guruhidir.

Guruh – ma’lum maqsad asosida to’plangan, ikki va undan ortiq kishilar uyushmasi.

Jamoa so’zi lotincha – “ Kollektivus” so’zining tarjimasi bo’lib, yig’ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, sinf ma’nolarini anglatadi, aniqroq aytiladigan bo’lsak jamoa bu kishilardan iborat sinf demakdir. Zamonaviy talqinda – jamoa tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. **Birinchidan**, jamoa deganda kishilarning istalgan tashkiliy sinfi tushuniladi (masalan ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, xo’jalik jamoasi va h.k.). **Ikkinchidan**, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan sinf tushuniladi. Chunonchi, o’quvchi-tarbiyalanuvchilarning birlashmasi o’ziga xos muhim belgilarga egadir. Quyidagi jamoa va uning xususiyatlari borasida so’z yuritamiz. Jamoa va jamoa orqali tarbiyalash tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo’lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o’ynashi to’g’risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanishi davridayoq bildirilgan. Jamoada uning a’zolari o’rtasidagi munosabatining alohida shakli yuzasiga keladi. Bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta’minlaydi. Lekin har qanday sinfni ham jamoa deb hisoblab bo’lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday sinflar ajratib turadi. Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me’yorlari o’z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlari tizimida namoyon bo’lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishida o’zaro birlik uzviy maqsadga muvofiq tashkil etadi. Shu bois, jamoa hayotining bir yagona maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy g’oyaviy yo’nalganligi uning yetakchi belgisi hisoblanadi. Har bir jamoa boshqa bir jamoalar bilan uzviy bog’liq bo’ladi. Uning har bir a’zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o’z jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoani tushunish, uni his etish hamda shaxsni shakllantirishdagi o’rni va rolini to’g’ri baholay olish umumiy va xususiy maqsadning qiziqishi, ehtiyoj hamda faoliyatining birligini namoyon etadi hamda bo’linishiga yo’l qo’ymaydi. Har bir jamoa o’z-o’zini boshqarish organiga ega va umummilliy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog’lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo’naltirilgan jamoa navbatdagi muhim xususiyatdir.

Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g’oyaviy yo’nalishini ham jamoaning faoliyati mazmunida o’z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir. Jamoa xususiyatini

aniqlashda kishilar sinfining yagona ijtimoiy tizimini o'rnata olishdagi usuli, ya'ni jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblanadi. Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa faoliyati natijasida jamoa a'zolari o'rtasidagi ishchanlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun javobgarligi hissi qaror topadi.

Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas'uliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, jamoaga mansublik hissini paydo bo'lishini uyg'otadi, jamoa munosabatida bo'lishi ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro sinfiy yaqinlik, hissiy birlik yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi. Ruhiy va hissiy birlik jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini mazmuniga ular orasidagi hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir. Jamoa o'z-o'zini boshqarish va tartibga solish organlariga ega bo'lib, ular barcha bolalarning hamda jamiyatning manfaatlarini ifodalovchi vakillardir. Jamoa maktab o'quvchilarini umumiy maqsad, umumiy mehnat bilan hamda mehnatni umumiy tarzda tashkil etish bilan birlashtiradi. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayondir. Jamoani vujudga kelishi uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichida dastlab pedagog butun bir sinfga talab qo'yadi, so'ngra jamoa faollari jamoa a'zolariga talab qo'yadi, butun jamoa alohida shaxsdan muayyan tarzda faoliyat olib borishni talab qiladi va nihoyat, shaxs o'z-o'ziga talab qo'yadi. Qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq va jamoa a'zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ijodiy hamkorligi a'zolarining xulq-atvor, axloqiy kamolot darajasini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonning mohiyatini inobatga olish zarur. Jamoani shakllantirish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, chunki jamoaning bosqichlari chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay, pedagogik nuqtayi-nazardan jamoaning shakllanish bosqichlariga ajratish juda muhim.

Bolalar jamoasi rivojlanishining birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat pedagoglar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki, tashkil etuvchi birlik (sinf, sinf)dir. Tarbiyalanuvchilar talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqali jamoa tarkib topadi. Mazkur bosqichda pedagogning asosiy maqsadi jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo'ladi. Ushbu bosqichda pedagogning talabchanligi,

qat'iyligi, izchilligi, murosasizligi va barcha a'zolariga talabni birday qo'ya olishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o'qituvchining – hukmdorlik davri uzoq davom etishi mumkin emasligini hisobga olish zarur. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli muayyan sinfning shunday a'zolaridanki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar va pedagog faoliyati talablariga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar pedagogning yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faollarining pedagog talablarini qo'llab-quvvatlashi hamda o'z navbatida, uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda pedagogik jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq bo'lgan muammo, masalalarni yolg'iz o'zlari hal qilmaydilar. Jamoa a'zolari bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga ularni jalb etadi. Jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi. Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismi xolos. Bordi-yu jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolsa, jamoa faollari sinfning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavfi tug'ilishi mumkin. Mazkur bosqichda jamoa moddiy va ma'naviy imkoniyatlarini to'plab, mustahkamlanib va boyib borar ekan, shaxsning har tomonlama ulg'ayishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni sekin-asta yaratib beradi. Bu esa ikkinchi bosqichni – jamoa shaxsni har tomonlama kamolga yetkazishning obyektiv shakli asosida boshlashini taqozo etadi.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi. Bu bosqich jamoa faoliyatida anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning aniqlashicha, bu davrda butun jamoa – ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxslarga talab qo'ya boshlaydi. Jamoa endilikda faqat faollargina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. Pedagog mazkur yo'nalishdagi ishni maqsadga muvofiq va izchil tarzda olib brogan sharoitda ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasini jamoaning birgalikdagi faoliyati yakuni uning a'zolari tomonidan jamoa bo'lib muhokama qilinadi: turli mavzuda suhbatlar, ma'ruzalar uyushtiriladi.

Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi. Bu bosqich uchinchi bosqichning bevosita davomi bo'lib, uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan talablar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. To'rtinchi bosqichda jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan xarakterlidir. Bu bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va

mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldidagi istiqboli, yuksak va murakkab talablar qo'yish uchun qulay sharoit yaratiladi. Bugungi kunda pedagog olimlar bolalar jamoasi rivojlanishi jarayonini tashkil qilar ekan, uni quyidagi ikki bosqichga bo'ladi:

1. Jamoani dastlab jipslashtirish;

2. Jamoani shakllantirish uning har bir a'zosini individual rivojlantirishning asosidir.

Jamoa hayotidagi har bir bosqichni ajratib ko'rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan edi:

1. Doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyatga tayyorligi;

2. O'z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida qadr-qiymatini anglash;

3. Uning a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik;

4. Jamoaning har bir a'zosidagi do'stona birlik;

5. Tartibli, ishchan harakatga undovchi faollik;

6. O'z hissiyot va so'zlarini boshqara olish ko'nikmasi.

O'quvchilar jamoasini shakllantirish.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlarida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiya nazariyasining yetakchi g'oyasidir.

Jamoa deyilganda umumiy maqsad sari intilgan va birgalikdagi faoliyat uchun jipslashgan o'quvchilarning sinflari tushuniladi. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va kuchaytirish.

Jamoadagi bir-biriga g'amxo'rlik qilish, o'zaro yordam, faqat o'zi haqida emas, balki boshqalar haqida ham o'ylashga intilish, jamoa manfaatini o'z qiziqishidan ustun qo'yish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Jamoadagi o'rtoqlik va do'stlik hissi tarkib topadi. O'quvchilar jamoasini tuzayotib, tarbiyalayotib maktab o'qituvchilari uning har bir a'zosini, shaxsini shakllantiradi. Jamoadagi o'quvchilarning o'zaro munosabati o'zaro javobgarlikni his etish, topshiriqlarni bajarishda barcha a'zolarining tengligi bilan ajrab turadi, chunki unda o'quvchilar o'zaro yaqin muomalada bo'ladilar, hamma vaqt birgalikda harakat qiladilar, butun jamoa qo'ygan maqsadni hal etishda qatnashadilar. Har bir sinf kichik jamoa

bo'lib, o'z faollariga ega bo'lsa-da, bu jamoa maqsadlarning birligi va umumiy ishlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishni sinfdagi jamoa munosabatlarining rivojlanish darajasi (bosqichi, davri)ni aniq belgilashdan boshlaydi. Sinf rahbari jamoasining o'z ish uslubi bilan rivojlanishiga to'sqinlik qilmasligi uchun vaqti-vaqti bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi. Tarbiya nazariyasi jamoa rivojlanishining uch daraja bilan belgilaydi. Dastlab pedagogning kuch-g'ayrati natijasida sinfdagi o'rnatilgan muayyan talablar: tartib, intizom bilan o'quvchilarning uncha katta bo'lmagan qismi sinf rahbarining harakatlarini qo'llab-quvvatlashi bilan izohlanadi. Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yo'l uzoq bo'lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar juda qiziqarlidir. Umuman o'quvchi tarbiyasining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o'tishiga bog'liq bo'ladi. Agar o'quvchilar jamoasi barpo etilmagan bo'lsa, o'quvchi maktabni hech afsuslanmay tark etadi. Hatto, keyinchalik maktab yillarini eslamaydi ham. O'quvchilarni inoq jamoaga birlashtirgan mohir sinf rahbari qo'lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulg'ayayotgan kishi, fuqaroning hayotidagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo'lini belgilashda o'z vazifasini anglash sinf rahbarining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boradigan faol va qat'iy faoliyatining zarur sharti hisoblanadi.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur tuzilma bir tomondan jamoa a'zolari qo'shilgan ishchanlik munosabatlarini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi tarbiyachilar hamda jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud boshqarish munosabatlari mazmunini ifoda etadi. Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasida shaxslararo ma'naviy psixologik munosabatlarining umumiy tizimi va mikrosinfini tashkil etuvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi.

Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. Tarbiyalanuvchi shaxsning jamoadagi o'rni uning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda, jamoaning rasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlari tizimida ko'zga ko'ringan o'rinni egallagan holdagina chinakam jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiy sinflar, umumjamoa ijtimoiy manfaatlari uchun kurashuvchi sinflar bo'lgandagina jamoa o'zining chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin. Jamoaning o'ziga xos yana bir xususiyati shundaki, yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar sinflari qanchalik ahil va inoq munosabat

zaminida tashkil topgan bo'lmasin haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olish, jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy ahamiyatli faoliyat, maqsad, ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarini o'rnatish lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga pedagogik rahbarlikning bo'lishidir.

Shunday qilib, jamoa – kishilarning shunday muayyan sinfi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilganini tashkil etadi. Ushbu sinf a'zolari o'zaro birlik, a'zolarining munosabatlar jarayonidagi tengligi asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'ysunishi, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarligi asosida muayyan faoliyatni olib boradilar.

Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Jamoaning yetakchi tarbiyaviy vazifasi shaxsni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarini hosil qilish, mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'lim hamda yangi turdagi ta'lim muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi. Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in bu sinflar jamoasi sanaladi. Sinf jamoasi doirasida o'quvchilarni asosiy faoliyati o'qishdir. Aynan sinf jamoasida o'quvchilar o'rtasida mustahkam shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Bu bilan sinf jamoasi o'z negizida maktab jamoasini shakllanishi uchun o'ziga xos poydevor vazifasini bajaradi. Maktab jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismini tashkil etadi. O'quvchilar jamoasi – bu, ijtimoiy ahamiyatni tashkil qilish, shuningdek, umumiy saylov organlariga va umumiy javobgarlik, barcha a'zolarining huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar sinfidir. O'quvchilar jamoasi pedagogik-tarbiyachilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqaruv jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o'zining psixologik muhitiga, an'alariga ega sinf hisoblanadi.

Demak, yuksak darajada uyushtirilgan jamoa o'zida bir necha xususiyatlarni namoyon etadi. Ular quyidagilardir:

- Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi.
- Birgalikdagi umumiy faoliyatning tashkil etilishi.
- Majburiy mas'uliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi.
- Saylangan umumiy rahbariy organga egalik.

Yosh avlodni hayotga va mehnatga tayyorlashda, ularda oliy axloqiy sifatlarini shakllantirishda jamoa ruhida tarbiyalash alohida o'rinni egallaydi. O'quvchi maktab davrida jamoa bo'lib o'qiydi, hamjihatlikda ishlaydi, demak, jamoatchilikning dastlabki tamoyillari bilan tanishadi va ularni o'rganib boradi.

Jamoatchilik tushunchasini tor ma'noda va keng ma'noda tushunish mumkin. Tor ma'noda jamoa ma'lum sinf kishilar yig'indisi, sinf jamoasi va boshqalardir. Jamoatchilikni keng ma'noda tushunish bu, dastavval, uning obyektiv asoslarini bilishdir. Shaxsning asosiy xususiyati jamoa bo'lib, u obyektiv asosida shakllanadi. Bu esa, dastavval, jamiyat xarakteriga va hayot sharoitiga bog'liqdir. Jamoatchilik nazariyasining bu obyektiv qonuniyligini, albatta, hisobga olish zarur. Jamoatchilikning bunday tarixiy taraqqiyotini kuzatish hozirgi jamiyatda jamoatchilikning mohiyati nimadan iborat ekanligini, shuningdek, jamoatchilikning mohiyati nima bilan xarakterli ekanligini bilish taqozo etadi. Bizning qarashimizcha, jamoatchilik shaxsning asosiy xususiyatigagina emas, balki butun g'oyasi hamdir. Ayrim olimlar jamoatchilikni nazariy jihatdan inkor etadilar yoki bu ikki yuzlamachilik, munofiqlik qiladilar. Jamoatchilikning rivojlanish dialektikasi, bir tomondan, obyektiv asosini ko'zlasa, ikkinchi tomondan, jamoaning rivojlanishi, nazariy psixologiyasi sifatida obyektiv moddiy asoslarini aks ettiradi. Jamoatchilikda shaxsiy va jamoat manfaati o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Jamoatchilik manfaati shaxsiy qiziqishni ham ko'zlaydi, shaxsiy manfaat, o'z navbatida, umummanfaatni ham ko'zlaydi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, jamoatchilik o'zining mohiyati bilan o'zining asoslariga ega. Agar jamoatchi ma'lum sinf, jamiyatni va uning manfaatini o'zida ifoda etsa, individualchi bir kishinigina manfaat va qiziqishini ifoda etadi. Jamoatchilikning shakllantirish jarayoni, ruhiy tabiatini ma'lum darajada ochish maqsadga muvofiqligini taqozo etadi. Jamoatchilik kishilardagi irodaviy, aqliy va hissiyot jarayonidir. Jamoa hissiyot bo'lib, kishilarning bir-biriga va atroflarga bo'lgan munosabatlarida hamda ichki kechinmalarida, kishilarning ichki his-tuyg'ularini, o'z jamoasining yutuq va kamchiligi to'g'risidagi ichki kechinmalarini tushunamiz. Shaxsdagi aqliy jarayon bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham, kishilardagi jamoa hissini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Elektron manba: <http://lex.uz/docs/4545884>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi "2022—2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 60-sonli Farmoni.

3. Sarsenbayeva R.M. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019.
4. Egamberdiyeva N.M., Muxsiyeva A.Sh. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – o‘quv uslubiy majmua. Jizzax - 2019
5. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S. Umumiy pedagogika – darslik. “Fan va texnologiya” nashriyoti. Toshkent-2018
6. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti – darslik. “Sano-standart” nashriyoti. Toshkent-2017
7. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.X., Normurodova B.A., Matnazarova K.O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi – darslik. Toshkent-2014